

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/5 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SPI1342V3SI5Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/5 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Кайпова Малика Дауытбай қизи*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА
ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ9-13
- Фарманова Гульнара Комилевна*
АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ
САМАРКАНДСКОГО СОГДА 14-19
- Aminov Xurmatbek Вахрат о'g'li*
HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR 20-25
- Мустафоев Жонибек Аралбоевич*
“ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ
ОҚИБАТЛАРИ (НАВОЙИ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) 26-31
- Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li*
O'ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOY DAVLATNI
SHAKLLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ISTIQBOLLARI32-36
- Маҳмудон Эркин Асқаралиевич*
АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРҒОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР37-45
- Назаров Комил Шамсуддинович*
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ46-51
- Матажонов Раҳимжон Акратович*
O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI52-58
- ### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ
- Остоноқулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жума ўғли*
ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ
ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИАТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ 59-69
- Narmamatov Ixtiyor Baxtiyorovich*
DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF
UZBEKISTAN 70-75
- Хамраев Джамшид Панжиевич*
ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ
ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ 76-81
- Кулибоев Азамат Шоназарович*
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ
УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 82-91
- Axmedova Nazokat Zikirillo qizi*
KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH
USULLARI VA AFZALLIKLARI 92-97

<i>Саатмуротов Шохрух</i> МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ	98-103
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i> АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ	104-113
<i>Кадиров Лутфулло Халимович</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ	114-121
<i>Ibragimova Zarema Zokirovna</i> DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TASHLILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI	122-129
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> «COVID-19» ИНҚИРОЗИНИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ	130-137

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i> JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINCHLIKKA OID QARASHLARI	138-145
<i>Rahmatova Xolidaxon Xolikovna</i> ХОҲА АНРОР ВАЛИЙНИНГ ТИНЧЛИК, ОСОЙИШТАЛИК ВА НАМЎНАТЛИККА ДОИР Г'ОЙАЛАРИ – ВАРҚАРОР ТАРАҚҚИЙОТ ОМИЛИ СИФАТИДА	146-151
<i>Орзиев Иқболжон</i> АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ	152-157
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA VAHS-MUNOZARALARNING TUTGAN O'RNI.....	158-165

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Israil Mukaddas Irgashevna</i> BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTDI O'RGANISH USULLARI	166-172
<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E'TIQODIY QARASHLAR	173-178
<i>Маматкулова Камола Шавкат кизи</i> ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ	179-184
<i>Hamroyeva Dilfuza Jamolovna</i> O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIY TALQINI	185-189
<i>Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna</i> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH	

MASALALARI	190-195
<i>Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi</i> ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI.....	196-200
<i>Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor</i> FARZONA XO'JANDIY SHE'RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIY IFODASINING XUSUSIYATLARI	201-206
<i>Kholiyorov Bunyod</i> THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	207-213
<i>Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak</i> NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI	214-219

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Файзиев Шухрат Хасанович</i> ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	220-225
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	226-233
<i>Safoeva Sadoqat Musoeva</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	234-246
<i>Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли</i> АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ	247-253
<i>Турсунова Маликахон Улуғбековна</i> ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ	254-258

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Atamatov Abduxalil Salomovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI O'QITILISHINING KOMPETENSIYAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	259-265
<i>Omarova Gavhar Sadikovna</i> HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA	266-271
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI	272-277

<i>Kuchkarova Arofathon</i> THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS AT SCHOOLS	278-283
<i>Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYYATINI O'QITISH TARIXI	284-288
<i>Masharipov Ravqat Madraximovich</i> KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI OPTIMAL ME'YORLASH	289-295
<i>Niyozmatov Anvar Bahodirovich</i> XORAZM XALQ O'YINLARI	296-303
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> OLIJ TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI	304-309
<i>Kejaboev Abdusalim Erkaboevich</i> PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIJ RAHBAR KOMPETENTLIGI	310-315
<i>Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi</i> OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK – USLUBIJ TA'MINOTI	316-322

13.00.00- Педагогика фанлари

Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna
O'zFinPI dotsenti p.f.b.f.d. (PhD)
xolidatojiyeva29@gmail.com

UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYATINI O'QITISH TARIXI

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablari adabiyot darslarida asar badiyatini o'qitishning tarixi haqida so'z boradi. Adabiyot darslarida asar badiyatini o'quvchilarga yetkazish ijodkorlarlar hayot faoliyati, asarlari tahlil qilinadi. Shuningdek, adabiyot tarsiqliklarining yaratilishi, tanlangan asarlar tarixi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: adabiyot, maktab darsliklari, metodist-olimlar, adabiyot tarixi

Tajiyeva Khalida Bakhtiyorovna
Associate Professor of UzFinPI,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

HISTORY OF ART TEACHING IN LITERATURE CLASSES OF GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Abstract. This article talks about the history of teaching the art of the work in the literature classes of secondary schools. In literature classes, the life activities and works of creators are analyzed to convey the artistry of the work to the students. Also, the creation of literary works, the history of selected works will be discussed.

Key words: literature, school textbooks, Methodist scientists, literary history

Таджиева Халида Бахтеровна
Доцент УзФинПИ, д.ф.п.н. (PhD)

ИСТОРИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСКУССТВА НА КЛАССАХ ЛИТЕРАТУРЫ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Аннотация. В данной статье рассказывается об истории обучения искусству произведения на уроках литературы общеобразовательных школ. На уроках литературы анализируется жизненная деятельность и творчество творцов, чтобы передать учащимся художественность произведения. Также будет обсуждаться создание литературных произведений, история избранных произведений.

Ключевые слова: литература, школьные учебники, ученые-методисты, история литературы.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N41>

Kirish. Adabiyot o'zining badiiy nafisligi bilan, so'z san'atining sir-asrorlari orqali ma'naviy qoniqish hadya etuvchi fan sifatida alohida o'rin tutgan. Bu fan o'zining mo'jizakor

ta'sir kuchi bilan insoniyatning ongiga, fikriga, qalbiga, tuyg'ulariga ta'sir etib kelgan. Ammo bu fanni o'rganish, uni o'qitish usullarini kashf etish masalasi asrlar mobaynida turli davrlarda turli shakllarda amalga oshirib kelingan. Aslida, adabiyot fanini o'qitish usullari qachon paydo bo'lganligi haqida aniq bir fikr aytish qiyin.

Qadim zamonlardan buyon adabiyot ilmini o'rganish masalasida hamisha bir muammo ko'ndalang bo'lib turgan. Ya'ni nimani o'qitish, o'rgatish lozim, qanday yo'l, usulni qo'llash kerak? Bu muammoga javob topish esa talabalarni adabiyotga oid ma'lumotlardan xabardor qiluvchi ustoz zimmasiga yuklatilgan. O'z navbatida, mudarris murakkab matndagi manbalarni o'rgatish usullariga murojaat qilgan va ularni amalda qo'llagan. Murakkab matnlardan biri VII asrning birinchi yarmida nozil bo'lgan Qur'oni karimdir. Bu asar musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, u o'z tarixiy, madaniy, ma'naviy-ahloqiy ahamiyati bilan butun Sharq xalqlarining ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, axloqiy poklanishda najot omilidir.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyot o'qitish metodikasi bilan bog'liq, dastlabki tadqiqotlar yigirmanchi asrning yigirmanchi yillarida fan sifatida shakllandi va rivojlanib bordi. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza kabi ijodkorlar va dastlabki ma'rifatparvarlar badiiy ijod namunalarini yaratish bilan birga dastlabki tashkil etilgan maktablar uchun darslik va o'quv qo'llanmalar yaratgan uslubshunoslar hamdir. Ular yaratgan darsliklar biri "Birinchi muallim" bo'lib, Abdulla Avloniy tili bilan aytganda "Birinchi maktablarimizning shogirdlarina alifbodan so'ng o'qutmak uchun ochiq til va oson tarkib ila yozulub, axloqiy hikoyalar, adabiy she'rlar ila ziynatlanmish"[1], deya e'tirof etar ekan, darslikka "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan namuna kiritadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Siddiqiy Ajziy, Said Rizo Alizoda, Hamza kabi ijodkorlar ham sezilarli iz qoldirgan yirik siymolardir.

Ayniqsa, Hamzaning "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi" (1914-1915) Abdurahmon Sa'diyning "Saboq tuzugi" (1920) darslik va dasturlarida adabiyot o'qitish metodikasiga oid ayrim ma'lumotlar uchraydi. Aslida, "Adabiy o'qish" atamasi 1921-yil o'quv dasturlarida tilga olingan bo'lib, maktab ta'limida inobatga olinib boshladi.

1924-yildan 1929-yilgacha o'tgan davr ichida Elbekning "Namuna" (1-5 qism, 1925), Fitratning "Adabiyot qoidalari", "O'zbek adabiyoti dasturlari" (1925) kitoblari yaratildi.

1938-yilda esa "To'liqsiz o'rta va o'rta maktablar uchun programma"da qisman bo'lsa-da adabiy asarni o'qishga urg'u berildi. Sal keyinroq tuzilgan "O'rta maktab progammalari" (1940)da og'zaki va yozma nutqni o'stirishga, o'quvchilarning mustaqil fikrlash imkoniyatlarini rivojlantirishga e'tibor berildi, asarni ifodali o'qish, savol va topshiriqlar hamda mashqlar asosida asarning g'oyaviy mazmunini o'zlashtirish tavsiya etildi. Tanlangan asarlarning o'quvchilarning yoshi va bilim saviyasiga mos bo'lishiga e'tibor qaratildi.

1934-yilda "O'rta maktablarda adabiyot o'qitish metodikasining asosiy masalalari" nomli uslubiy qo'llanma yaratildi. Unda adabiyotni maxsus fan sifatida o'qitish bolaga adabiy ta'lim berishda tegishli izchillik va mantiqiy qoidalar bo'lishi ko'rsatib o'tildi.

Aslida, mazkur uzluksiz ta'lim tizimini o'rganish masalasi o'tgan asrning 60-70-yillarida boshlangan bo'lib, asosan umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlari uchun darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratgan taniqli metodist-olimlarni qiziqtirib kelgan. Ular asosan madrasalarda tahsil olgan ziyolilarning farzandlari bo'lib, ta'lim tarixining zukko bilimdonlari edi. Xususan, taniqli metodist-olim Subutoy Dolimov 1940-yildan boshlab o'rta maktablar

uchun adabiyot dasturlarni, beshinchi sinfdan tortib o'ninchi sinfga qadar hamda pedagogika bilim yurtlari va texnikumlari uchun adabiyotdan darslik va majmualar tuzishda faol ishtirok etibgina qolmay, bu jarayonga rahbarlik ham qilib keldi. 1952-yilda u "Adabiy o'qish metodikasi", 1955-yilda "Vatan adabiyoti" xrestomatiyasi uchun metodik qo'llanma" (5-sinf uchun) asarlarini yaratdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu ikki asar adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha yaratilgan birinchi uslubiy qo'llanmalardan bo'lib, O'zbekistonda adabiyot o'qitish metodikasining fan sifatida shakllanishida dastlabki qadam bo'ldi. "Avtor adabiy o'qish metodikasi" qo'llanmasida ..., — deb yozadi prof.Asqar Zunnunov, — badiiy asarni o'zlashtirish va estetik tarbiyaning muhim sharti bo'lgan ifodali o'qishga e'tibor beradi. ...Qo'llanmada adabiyotshunoslikda yuz bergan yangiliklar asosida ilg'or pedagogik tajribalar umumlashtirilgan".[2] Olim nazarda tutgan "ilg'or pedagogik tajriba" V.V.Golubkov, M.A.Ribnikova, N.I.Kudryashov, YA.A.Rodkovich kabi rus metodist olimlarining asarlarining asarlarida bayon qilingan edi. S.Dolimov bu asarlarni har tomonlama tanqidiy o'rgandi, muhim hisoblaganlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, o'zbek adabiyotini o'qitish amaliyotiga qo'llashga harakat qildi. O'sha dolg'ali davrda darsliklar, uslubiy qo'llanmalar yaratish anchayin jasoratni ham talab qilar edi. Ustoz bilan bir suhbatda "Men yozgan darsliklarimdan, uslubiy qo'llanmalarimdan aslo ko'nglim to'lmagan. Darhaqiqat, darsliklar, "O'zbek adabiyoti" deb nomlansa-da, tanlangan mavzularning 50-60 foizini rus, qardosh, chet el adabiyoti tashkil etar edi. O'zbek adabiyoti zabardast vakillari nomlarining qoralanishi, ular qatag'on-qirg'in qurbonlariga aylanishi sababli, darsliklarni to'ldirish uchun shunday yo'l tutilgan edi.

Muhokama. Haqiqatdan ham, bugun dasturga kiritilgan shoir yoki yozuvchini ertasiga xalq dushmani sifatida chiqarib tashlash qanchalik og'ir ekanini his qilish qiyin emas. Axir, olim ularni tanigan, suhbatida bo'lgan (Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Maqsud Shayxzoda, Mirzakalon Ismoiliy va boshqalar), iste'dodlarini tan olgan va darslik-qo'llanmalarga kiritishga harakat qilgan. Ammo Subutoy Dolimovning muhim xizmatlaridan biri shundaki, u nihoyatda mohirlik bilan eng muhim uslubiy tavsiyani, ya'ni asarlarni mustaqil o'qishni keng targ'ib qiladi. Bundan maqsad o'quvchilar bilan ijodiy suhbatni amalga oshirish orqali ayrim adabiyotning va adabiyot nazariyasining taqiqlangan jihatlarini etkazishga harakat qiladi. Bu yo'l bilan olim, bir tomondan, o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish maqsadini ko'zlasa, ikkinchi tomondan, o'quv dasturiga kirita olmagan uslubiy takliflarini asarlar qatidan qidirishga, ularning ma'naviyatini yuksaltirishga intilgan. Shuning barobarida o'quvchilarni kitobxon sifatida tayyorlash maqsadi ham ko'zlangan. Ustozning o'sha davr sharoitidan kelib chiqib, qo'llagan yo'llaridan biri shu edi. Olim rahbarligida birinchi bor oliy o'quv yurtlari uchun yaratilgan "Adabiyot o'qitish metodikasi" darsligi (1967), qator metodik qo'llanmalar va maktab darsliklari rus metodist-olimlarining tajribalari asosida yaratildi va o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasiga moslashtirilib o'quvchilarga taqdim etildi.

Bevosita adabiyot o'qitish usullari tarixiga bag'ishlangan professor Asqar Zunnunovning "O'zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar" (1973) o'quv qo'llanmasida shunday satrlarga duch kelamiz: "Turkiston maktab va madrasalarida, — deb yozadi olim, — ijtimoiy muhit va jamiyat hayotini, kishilarning o'zaro munosabatini, xususiyatini o'rganish o'quvchilar uchun zararli mashg'ulot sifatida ta'limdan chiqarib tashlanadi... Turkistonning eski maktab va madrasalarida quruq dogmatik, ta'lim hukmronlik qildi. Ta'limdagi bu dogmatizm bolalarning savodsiz bo'lib qolishiga sabab bo'ldi".[2]

Bu fikrlar XX asr boshlarida hukm sura boshlagan rasmiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarning ta'lim tizimiga ta'siri ostida aytilgandir. Ammo olim madrasalar ta'lim tizimini yaxshi bilganligini bir o'rinda quyidagicha ifodalaydi: "...O'tmishdagi maktab va madrasalarda adabiyot o'qitish, adabiy asarni o'qish va tahlil qilish usullarini o'rganish alohida tadqiqot ishlarini olib borishni talab etadi", — deydi.[2, 10-b] Ko'rinadiki, olim bu mavzuning "alohida tadqiqot ishi"ni olib borishga loyiq ekanligini alohida e'tirof etsa-da, ammo bu tadqiqotni olib borishning imkoni yo'q edi. Shuning uchun olim o'z tadqiqotida 1917-yildan keyingi davr adabiyot o'qitish metodlari tarixini yoritish bilan chegaralangan.

Adabiyotshunos metodist olimlardan Natan Mallayev, Vohid Abdullayev, G'ulom Karimovlar tomonidan oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari uchun turli yillarda yozgan "O'zbek adabiyoti tarixi" darsliklarida ham mualliflar ta'lim tarixi xususida ham qisqa ma'lumot berib o'tadilar. Atroflicha ma'lumot berishning imkoni hamon yo'q edi.

Natijalar. Yuqorida tilga olingan darslik, uslubiy qo'llanmalarda aytilgan fikrlardan o'sha davr hukmron mafkurasining barcha sohalar singari, ilm-ma'rifatni ham bir qolipga solib qo'yganligining guvohi bo'lamiz. Shu sababli olimlarning zamona zayli bilan murosasozlik qilishga, g'ayri ilmiy xulosalar chiqarishga majbur bo'lgani ham ko'zga yaqqol tashlanadi.

Ammo, imkon qadar adabiyot o'qitish metodikasi fanining rivoji uchun xizmat qilgan bir guruh metodist olimlardan H.Ubaydullaev, Q. Axmedov, S.Ismatov, R. Usmonovlar o'zlarining qator uslubiy qo'llanmalari maqolalari bilan hissa qo'shdilar. Bu sohadagi eng yirik tadqiqot, shubhasiz, "Adabiyot o'qitish metodikasi"dir.

Bu darslik oldingi yaratilgan metodik tadqiqotlardan bir oz farq qilgan holda, adabiyot o'qitish metodikasi fanining o'qitilishi bilan bog'liq muammolariga oydinlik kiritilganligi muhim ahamiyatga egadir.

Respublikamiz mustaqillikka erishganiga o'ttiz yil to'ldi. Bu tarix qarshisida nihoyatda qisqa muddat bo'lib ko'rinsa-da, ammo mohiyat jihatidan asrlarga teng mazmunga ega ulug' tarixiy hodisadir. Mustaqillik Vatan tarixini manbalar asosida chuqur o'rganish imkonini berdi. Yurtimiz tarixining chuqur ildizini tashkil etgan ta'lim tizimi tarixini o'rganish ham dolzarb masalalar qatoridan o'rin oldi.

Xulosa. Mustaqillik yillarida adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha bir qator jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Shuningdek, o'z davrida yetarli darajada ilmiy-uslubiy tadqiq etilmagan, milliy qadriyatimiz hisoblangan sharqona o'qitish metodikasi masalalarini tiklash imkoniyatlari yaratildi. Xususan, bu borada olimlardan akademik B. Valixo'jayev, U. Dolimov, M. Tursunovalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Ta'lim tariximizda chuqur o'rganilgan adabiyot nazariyasiga oid badiiy san'atlar, ilmi aruzga oid tadqiqotlar, bugungi kun o'quvchilariga mos tarzda uslubiy qo'llanmalar professor A.Hojiahmedov tomonidan yaratildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jild. T. Ma'naviyat, 1998, 9-bet
2. Zunnunov A. O'zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar. – T.: O'qituvchi, 1973. 270 b.
3. Dolimov Ulug'bek. Milliy uyg'onish pedagogikasi. – T.: NOSHIR, 2012.-260 b.
4. Hojiahmedov Anvar Mumtoz badiiyat malohati T. Sharq 1999. 240 bet.
5. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar. Monografiya. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 244 b

6. Tohirov S. Aruz vazni qoidalari. O'quv qo'llanma. Samarqand. SamDU 2019.-147 b.
7. Tursunova M. Adabiyot qanday o'qitilishi kerak? // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2003-yil, 23-iyul.
8. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – T.: O'zbekiston, 1983.150 b.
9. Zunnunov A. Badiiy asar tahlili metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1992. 120 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).